



QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH

Mardonov Mashrab Mansurovich

*Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi
Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida
strategik rivojlanish xalqaro markazi
1-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida sug'urta tizimi samaradorligini oshirish, bu sektor o'ziga xos xavf-xatarlar bayon etilgan. Tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishlari, kasalliklar va boshqa omillar qishloq xo'jaligi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, qishloq xo'jaligida sug'urta tizimining joriy etilishi fermerlar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyaviy himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: sug'urta hodisasi, xatarlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, innovatsiya, sug'urta mexanizmi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jalik sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asl maqsadi, bu mavjud yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalana oladigan, munosib egalar qo'liga topshirishdir. Oqilona va samarali xo'jalik yuritish tizimini yaratish uchun, boshqa moliyaviy tizimlar qatori, sug'urta xizmatlarini rivojlanirish zarurati ham ushbu sohada bugungi kunda yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Zero, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kutilmagan noxush ob-havo va tabiat injiqqliklariga qanchalik ta'sirchanligini inobatga olgan holda, ushbu sohada xizmat ko'rsatayotgan korxonalar moliyaviy barqarorligini kafolatlash, fermerlar qatori, ushbu sohada band bo'lgan aholi daromadlari va ish o'rinalarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17 iyundagi "Paxta xom ashyosi va boshoqli don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 505-sonli qarori hamda 2019-yil 30 sentyabrdagi "Aholi xonodonlarida va chorvachilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda parvarishlanayotgan chorva hayvonlarini sug'urta qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 830-sonli qarorlari qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini keng rivojlanirishga qaratilgan muhim xuquqiy-me'yoriy xujjatlar hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan, qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimini rivojlanirishning mohiyati va zaruriyati ilmiy asoslash, qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimini rivojlanirishning o'ziga xos xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar tasniflash, qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimini rivojlanirishning hozirgi darajasi taxlil qilish asosida qishloq xo'jaligida sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega.



Qishloq xo'jalik sohasi, bir qator sabablarga ko'ra, ko'zlangan natijaga erishish va xo'jalik yuritish sharoitlari shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Qishloq xo'jaligi sohasida qaltisliklarni tan olmaslik va ularni boshqarish tizimini rivojlantirishdan bosh tortish ayrim qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini, ba'zan qishloq xo'jaligi sohasini va umuman jamiyatni uzlusiz rivojlanishiga, agrar sohani samarali kreditlash tizimini yaratishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bugungi kunda "O'zagrosug'urta" Kompaniyasi Respublika sug'urta bozorida o'zining nufuzli o'rniga ega bo'lib, 187 ta hududiy bo'linmalari, 21 ta sho'ba korxonalari hamda 600 taga yakin shaxobchalari orqali yuridik va jismoniy shaxslarga 90 ga yaqin sug'urta turlari bilan sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Hukumatimiz tomonidan istiqbolda qishloq xo'jaligini rivojlantirishni fermerlik harakati bilan bog'lar ekan, bu xol Kompaniya faoliyatida ham o'z aksini topgan. Yildan yilga fermer xo'jaliklariga taklif etilayotgan sug'urta turlari ko'payib, fermerlar sug'urta kamrovini kengaytirish uchun shartnomalar shartlari yengillashtirilmoqda.

Innovasion iqtisodiyotga o'tish jarayonida respublikamiz qishloq xo'jaligini o'z oldiga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatlari amalga oshirishda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalari shu jumladan, bank va sug'urta sohalarini rivojlantirish va takomillashtirishga ustuvorlik berish eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror, ishonchli taraqqiyotini ta'minlashda sug'urta faoliyati ham alohida ahamiyat kasb etmoqda Shu sababli, qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror sug'urta bozorining kelgusidagi rivojlanishi dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida shu jumladan, qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilarni sug'urtaviy himoyasini samaradorligini oshirish uning qator yangi vazifa va muammolarini hal etish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Sug'urta tizimining muhimligi:

1. **Xavflarni Boshqarish:** Sug'urta fermerlarga turli xavflarni boshqarish imkonini beradi. Tabiiy ofatlar, masalan, qurg'oqchilik, sel yoki bo'ronlar hosilni yo'q qilishi mumkin. Sug'urta polisiga ega bo'lish fermerlarga bunday xavflardan himoyalanishga yordam beradi.

2. **Moliyaviy Barqarorlik:** Sug'urta qishloq xo'jaligi korxonalariga moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Yo'qotishlar yuz berganda, sug'urta to'lovlar fermerlarga zararni qoplashda va faoliyatni davom ettirishda yordam beradi.



3. **Investitsiyalarni Rag'batlantirish:** Sug'urta tizimi mavjud bo'lsa, fermerlar ko'proq investitsiyalar kiritishdan qo'rqlashtirishni qo'rqmaydi. Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining oshishiga va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Ma'lumki, oxirgi yillarda xukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligini har tomonlama modernizatsiya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu nafakat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini texnik va texnologik jihatdan yangilash balki xo'jalik yuritish va boshqarishning yangicha shakllarini joriy qilish bilan ham tavsiflanmoqda. Bunda qishloq xo'jaligidagi xatarlarni sug'urtalashda nafaqat qishloq xo'jaligini korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash balki sug'urtaning agrar sohaga katta miqdorda investisiyalarni jalgan qilishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarini ishlab chiqishni va amaliyatga joriy qilishni ob'ektiv zaruriyatga aylantirdi.

Ma'lumki, bozor iqtisodi sharoitida o'zaro munosabatlar asosan sub'ektlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida yo'lga qo'yiladi. Har bir sug'urta tashkiloti konunda belgilangan tartibda sug'urtalanuvchilar bilan o'zaro majburiyatlarini, ma'suliyatlarini javobgarlik doirasini, majburiyat muddatlarini va boshqa ko'rsatkichlarni tuziladigan shartnomalarda to'lik ifodalashlari va so'zsiz bajarishni ta'minlashlari lozim bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini rivojlantirish bu sohada shartnomaviy munosabatlar bo'yicha tomonlarning ma'suliyatlarini oshirishga, korxonalar moliya idoralaridan mablag' jalgan etish qobiliyatiga hamda ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, olinadigan hosilini extiyotlash maqsadida barcha imkoniyatlaridan foydalanib sug'urta shartnomasi tuzgan fermer xo'jaliklariga kompaniyamiz tomonidan turli hodisalar natijasida ko'rgan zararini olingan sug'urta javobgarligi doirasida sug'urta tovoni orqali qoplash kafolatlanadi.

Xulosa. Qishloq xo'jaligida sug'urta tizimining joriy etilishi va rivojlantirilishi nafaqat fermerlar uchun, balki umuman jamiyat va iqtisodiyot uchun ham muhimdir. Bu tizim fermerlarga xavflarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni saqlash va investisiyalarni rag'batlantirish imkoniyatini beradi. Shu sababli, qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini kuchaytirish uchun davlat, sug'urta kompaniyalari va fermerlar birgalikda harakat qilishlari lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrda yangi taxrirda qabul qilingan qonuni.



2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi”gi PF-4947-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi “Paxta xom ashyosi va boshoqli don ekinlarining bo‘lg‘usi hosilini sug‘urtalash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 505-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentyabrdagi “Aholi xonadonlarida va chorvachilik yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda parvarishlanayotgan chorva hayvonlarini sug‘urta qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 830-sonli qarori.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг сұғурта бозорини ислох қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари түғрисида”ги ПҚ-4412-сонли қарори.
6. Ялгаров А.А. Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалигига сұғурта механизмини такомиллаштириш. 08.00.04-Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти ихтисослиги бўйича иқтисод фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2006 йил.
7. Nurillaev, J. (2024, April). The Role of Cluster Education and Science in The Stable Development of Society. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 4, pp. 21-23).
8. Nurillaev, J. Y. (2024). Theoretical and methodological foundations of financing karakul farming in a market economy.
9. Нуриллаев, Ж. Я., & Мухамадиев, Н. К. (2007). Особенности липидного обмена у больных с пузырно-влагалищными свищами. Урология, (6), 36-39.
10. Yarashevich, P. N. J. (2023). Factors for Choosing a Marketing Strategy in Tourism Development.
11. Nurillaev, J. Y. . (2021). Directions To Improve The Activities Of The Karakulchil Sector In Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(02), 57–62.
<https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue02-11>
12. Nurillayev, 23J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.
13. Нуриллаев, Ж. Я. (1999). Оценка метафилактических мероприятий по отдаленным результатам хирургического лечения мочекаменной болезни у детей.
14. Нуриллаев А.С. Ўзбекистонда фермер ва дехқон хўжаликларини сұғурталаш масалалари” 08.00.07-Молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иқтисод фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2007 йил.